



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'LIM
BOSHQARMASI**

**POP TUMANI XALQ TA'LIMI MUASSASALARINI
FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL
ETISH BO`LIMIGA QARASHLI
№64-SONLI UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABI**

TARIX FANI O`QITUVCHISI

SHARIPOVA ODINANING

9-sinflar uchun jahon tarixi fanidan bir soatlik



OCHIQ DARS

ISHLANMASI

Mazkur dars ishlanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf "Jahon tarixi" fanidan Davlat ta'lim standartlari va o'quv mavzu rejasi asosida tayyorlangan. Undan dars mashg'ulotlarida, "Yosh tarixchi" to'garagida hamda iqtidorli o'quvchilarni bilimlar sinoviga tayyorlashda foydalanish tavsiya etiladi.

Muallif:

O.Sharipova-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Taqrizchi:

M.Tursunova-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi Tarix fani uslubchisi

X.Abdurahmonova-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Mazkur dars ishlanma Pop tuman 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi _____ fanlar uslub birlashmasining 20__-yil _____dagi ____-sonli qarori bilan hamda Pop tuman XTMFMTTE bo'limi metodika kengashining 20__-yil _____dagi №____-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

**Namangan viloyati Pop tumani XTMTTE bo'limiga qarashli 64-sonli
maktabning gumanitar fanlar uslub birlashmasining yig'ilishi**

BAYONI № 5

2014 yil 12 dekabr

Qatnashdi:	10 nafar o'qituvchi
Yig'ilish raisi:	N.Mamatqulova
Yig'ilish kotibi:	D.Haydarova

KUN TARTIBI:

- 1.Pop tumanidagi 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi Sharipova Odinaning tuzgan na'munaviy ochiq dars tahlili.
- 2.Sharipova Odinaning "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida yozgan na'munaviy ochiq darsini maktabda ommalashtirish haqida.

ESHITILDI:

Yig'ilishni ochib berish uchun so'z. O'quv ishlari bo'yicha director o'sinbosari N.Mamatqulovaga berildi. N.Mamatqulova o'z nutqida O.Sharipovaning maktabda tutgan o'rni pedagoglarga bo'lgan munosabati haqida gapirar ekan ochiq dars haqida alohida to'xtalib o'tdi. Yig'ilishda yana tarix fani o'qituvchisi E.G'oyipova so'zga chiqdi. U o'z so'zida ushbu dars ishlanma DTS talablariga mos interfaol o'yinlar asosida tashkil etilganini o'z fikr mulohazalari orqali bildirdi.

Yig'ilish bahs munozara tarzida o'tdi.

Yuqoridagi masalani muhokama etib uslub birlashma yig'ilishi

QAROR QILADI:

- 1.64-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi Sharipova Odinaning na'munaviy dars ishlanmasi na'munali deb topilsin.
- 2.Maktabda ommalashtirish uchun maktab metodik kengashiga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi:	N.Mamatqulova
Yig'ilish kotibi:	D.Haydarova

Namangan viloyati Pop tumani XTMTTE bo'limiga qarashli 64-sonli maktabning metodik kengash yig'ilishi

BAYONI № 5

2015 yil 5-yanvar

Qatnashdi: 20 nafar o'qituvchi

Yig'ilish raisi: N.Mamatqulova

Yig'ilish kotibi: D.Mirhomidova

KUN TARTIBI:

1.Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida o'tgan na'munaviy dars ishlanmasi tahlili.

2.Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning dars ishlanmasini maktabda ommalashtirish haqida.

Yig'ilish metodik kengashi raisi N.Mamatqulova olib bordi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan maktabning Milliy g'oya o'qituvchisi E.G'oyipova so'zga chiqdi.

Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning yozgan dars ishlanmasi jamiyatda yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan sharoitdan har bir fuqaroning milliy o'zlikni anglash hamda vatanparvarlik diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'quvchilarga singdirishga qaratilgan.

Ikkinchi o'lib maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yich direktor o'sinbosari D.Jo'rayeva so'zga chiqdi. U o'z so'zida O.Sharipovanning tuzgan dars ishlanmasi o'quvchilarga milliy istiqloq g'oyasini singdirilganligini ularda ona diyorimizga mehr-muhabbat ozod va obod vatanga munosib farzand bo'lishlar hislari singdirilganligini aytib o'tdi va maktabda ommalashtirish uchun tavsiya etish kerakligini tavsiya qildi.

So'ngra gumanitar fan uslub birlashma boshlig'i D.Haydarova so'z olib gumanitar fanlar birlashmasining ilg'or o'qituvchisi O.Sharipova maktabda o'tgan barcha darslarida ahborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib zamonaviy darslar tashkil etayotgani haqida gapirib o'tdi va dars ishlanma hayotiy faktlar asosida izohlab berdi.

Men ushbu dars ishlanmani na'munali deb baholayman.

Yuqoridagi masalalarni muhokama etib maktab metodik kengashi

QAROR QILADI.

1.64-maktabning tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusidagi na'munaviy dars ishlanmasi maktab miqiyosida ommalashtirilsin va pedagogik kengashga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi: N.Mamatqulova

Yig'ilish kotibi: D.Haydarova

**Namangan viloyati Pop tumani XTMTTE bo'limiga qarashli 64-sonli maktabning
pedagogik kengashning navbatdan tashqari yig'ilishi bayonidan**

KO'CHIRMA № 7

2015 yil 16-yanvar

Qatnashdi: 34 nafar o'qituvchi

Yig'ilish raisi: R.Mirhomidov

Yig'ilish kotibi: D.Mirhomidova

KUN TARTIBI:

- 1.Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida o'tgan na'munaviy dars ishlanmasi tahlili.
- 2.O.Sharipovanning na'munali dars ishlanmasini tumanda ommalashtirish to'g'risida.

ESHITILDI

Yig'ilish pedagogik kengashi raisi R.Mirhomidov olib bordi. U o'z so'zida gumanitar fanlar birlashmasining ilg'or o'qituvchisi O.Sharipova maktabda o'tgan barcha darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydaalib zamonaviy darslar tashkil etayotgani ushbu o'qituvchi ta'lim berayotgan sinflardan o'quvchilarning bilim samaradorligi yuqori darajalarga ko'tarilganligi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatayotgani haqida gapirdi.

Men O.Sharipovanning yozgan na'munaviy dars ishlanmasini na'munali deb baholayman.

Kun tartibidagi masala yuzasidan maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari N.Mamatqulova so'zga chiqdi:

Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning na'munaviy dars ishlanmasi atroflicha o'rganib chiqildi. Ushbu dars ishlanma yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol texnologiyalar asosida o'tilgan.

Ikkinchi bo'lib maktabning ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari D.Jo'rayeva so'zga chiqdi.

U o'z so'zida O.Sharipovanning na'munaviy dars ishlanmasi o'quvchilarga tarix fanini o'qitishda ulardan ona diyorimizga mehr-muhabbat ozod va obod vatanga munosib farzandlar bo'lish hislarini singdirilganligini va diniy bag'rikenglik g'oyalarini singdirilganini aytib o'tdi. O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga yordam berishini takidladi. Ushbu dars ishlanma tumanda ommalashtirishga tavsiya etish kerakligini taklif qildi.

Yuqoridagi masalani muhokama etib maktab pedagogik kengashi

QAROR QILARDI:

1.64-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning na'munaviy dars ishlanmasi tuman miqiyosida ommalashtirish uchun XTMTTE bo'limini metodik kengashiga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi: R.Mirhomidov

Yig'ilish kotibi: D.Mirhomidova

Pop tumani XTMFMTTE bo'limiga qarashli 64-maktab
direktori R.Mirhomidovning tarix fani o'qituvchisi
O.Sharipovaga



TAVSIYANOMA

Sharipova Odina 1999-yil avgust oyida ishga qabul qilingan. U tarix fanidan 5-6-7-8-sinflarga dars berib kelmoqda. U ish faoliyati davomida ko'pgina yutuqlarga erishgan. Fan oyliklarida samarali tarzida tashkil etgan. Ish faoliyati davomida konstitutsiya kuni munosabati bilan har yilgi tadbirlarni na'munali tarzida tashkil etib kelmoqda. U har yili "TARIX BIZNING BUYUK KELAJAGIMIZ" mavzusida ko'rik tanlovlar tashkil etib kelmoqda. U darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol o'yinlar bilan tashkil etadi. O'quvchilarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari uchun to'garak tashkil etgan. Tashkil etgan to'garagi yuzasidan tadbirlar o'tkazib kelmoqda.

Tarix fanidan juda ko'p ochiq darslar tashkil etgan. Darslarda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan sharoitda har bir o'quvchining milliy o'zlikni anglash hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish asosida dars tashkil etadi. Jamoat ishlarida ham faolligi bilan boshqa o'qituvchilardan ajralib turadi.

Ish hujjatlarini ham na'munali tarzida yuritadi. Tumanimizda tashkil etilgan **"Eng yaxshi dars ishlanma"** ko'rik tanlovlarida ishtirok etib, fahrli o'rinlarni egallagan.

U " XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida yozgan na'munali dars ishlanmasini tumanda ommalashtirishga tavsiya etaman.

64-maktab direktori:

R.Mirhomidov

***Namangan viloyati Pop tumani Xalq ta'limi
muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish
bo'limiga qarashli 64-sonli umumiy o'rta maktabning
I-toifali tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovaga tuman tarix
fani uslubchisi M.Tursunovadan***



T A V S I F N O M A

O.Sharipova 1999-yil Namangan Davlat Universiteti Tarix fakultetini tamomlagan. 64-maktabda tarix fanidan saboq berib kelmoqda. O'quvchilarga tarix fanidan saboq berish bilan bir qatorda ularni vatanparvarlik, ajdodlar xotirasiga hurmat, milliy qadriyatkarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Viloyat ilg'or va tajribali o'qituvchilar kengashi a'zosi.

O.Sharipovaning o'quvchilari tumanda o'tkaziladigan fan olimpiadasi va "Bilimlar bellashuvi"da yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

O'z faoliyati davomida tumanda o'tkazilgan turli ko'rik tanlovlarda faol qtnashadi va yuqori ko'rsatkichlarni egallab kelmoqda.

U har bir darsni ko'rgazmali qurollar, xarita, qo'shimcha manbalar asosida o'tadi. AKT dan foydalanadi.

Maktabda o'quvchilarni fanga qiziqishini orttirish maqsadida to'garaklar tashkil qilgan va unda o'quvchilarni Vatanimiz tarixiga oid bilimlari yanada mustahkamlanadi.

O.Sharipova mazkur 9-sinflar uchun "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida tayyorlagan dars ishlanmasini "Dars muqaddas" tavsiyasi asosida yozgan, DTS talablariga mos keladi. Dars davomida AKTdan foydalangan, interfaol usullardan mohirona foydalangan, turli ko'rgazmalar, slaydlar, internet ma'lumotlar va boshqalardan foydalanib noan'anaviy usulda dars tashkil qilgan. O'quvchilarni mustaqil fikr yuritish va mustaqil ishlashga o'rgata olgan. O'qituvchi bir soat davomida o'quvchilarga yetarli bilim bera olgan.

O.Sharipova o'z faoliyatini yanada kengaytirib, yosh avlodni Vatanga munosib, ma'naviy barkamol bo'lib ulg'ayishiga o'z hissasini qo'shishda davom etishiga ishonch bildiraman.

Mazkur dars ishlanma viloyat miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Pop tuman XTMFMTTE bo'limi uslubchisi:

M.Tursunova

Namangan viloyati Pop tumani XTMTTE bo'limiga qarashli 7-sonli umumiy o'rta maktabning tarix fani o'qituvchisi H.Abdurahmonovanning 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining Tarix fani o'qituvchisi O.Sharipovanning ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Sharipova Odina bir necha yillardan buyon tuman xalq ta'limiga qarashli 64-maktabda faoliyat ko'rsatib kelayotgan talabchan, jonkuyar pedagog hisoblanadi. Ish faoliyati davomida o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladigan, ota-onalar bilan yaqindan muloqotda bo'la oladigan izlanuvchan o'qituvchidir. Tuman maktablari o'qituvchilari bilan doimiy tarzda o'z bilimlarini almashib turadi.

O.Sharipovanning 9-sinflar uchun Jahon tarixi fanidan "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya" mavzusida tayyorlagan bir soatlik dars ishlanmasi o'rganib chiqilganda, "Dars muqaddas" tavsiyasi asosida tashkil qilinganligi va DTS talablariga mos kelishi aniqlandi.

Dars to'g'ri tashkil etilib, bosqichlari birma-bir yoritilgan. Mavzuni o'rganishda turli ko'rgazmalardan, zamonaviy ta'lim metodlaridan mohirona foydalangan. Interfaol usullarni to'g'ri tanlay olgan. Mavzuda dunyo mamlakatlarining bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lganligi va ularni olib borgan siyosati yorqin ko'rsatilgan. O'tilgan mavzu yangi mavzuga, hayotga va boshqa fanlarga bog'langan. Yangi mavzuni to'liq va mukammal yoritib bera olgan. O'quvchilarni har tomonlama mustaqil ishlashga, xaritadan foydalana olishga, mustaqil fikr yuritishga o'rgatilgan.

Mazkur dars ishlanma namunali deb topildi va ommalashtirishga tavsiya etildi.

7-sonli umumiy o'rta ta'lim

Maktabi tarix fani o'qituvchisi:

H.Abdurahmonova

Soʻz boshi

Zamonaviy oʻqituvchi yosh avlodga taʼlim tarbiya berish jarayonida «Fasilitator» (yoʻl boshlovchi, oʻrgatuvchi) vazifasini bajarishi zarur. Fasilitator oʻqituvchi dars mashgʻulotining boshqaruvchisi, yoʻnaltiruvchisi, kuzatuvchisi va hulosalovchisidir. Oʻqituvchi oʻz «fasilitator»lik vazifasini bajarish bilan birga oʻquvchilarni oʻqishga, bilim olishga, mustaqil fikrlashga oʻrgatadi. Zero, Oʻquvchi oʻzlashtirgan bilimlar orqali dunyoni taniydi. Zamonaviy oʻqituvchi oʻquvchini oʻqitmaydi, oʻqishga oʻrgatadi. Bu borada Namanganga kirib kelgan global taʼlim dasturi oʻz samaralarini berishiga shubha yoʻq. Xoʻsh, global taʼlim nima oʻzi?

Kanadalik olim Devid Selbini global taʼlimga shunday taʼrif bergan: «Global taʼlim bu – taʼlimga kompleks yondashish boʻlib, u oʻquvchini bir vaqtda intellektual, emotsional, jismoniy, maʼnaviy va ruhiy rivojlantirish orqali uni tez oʻzgaruvchan, juda murakkab, koʻp madaniyatli va oʻzaro bogʻliq dunyoda katta hayotga faolroq qilib tarbiyalashdir».

Demak, global taʼlim oʻquvchilarga:

Dunyoni tizim sifatida qabul qilishga, hodisa va voqealar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik va munosabatlar haqida bilishga;

insoniyat va tabiat tizimlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirni tushunishga;

Oʻtmish, hozirgi kun va kelajakni ularning oʻzaro munosabati va oʻzaro taʼsirini inobatga olish uchun yordam beradi.

Bolaga nisbatan doʻstona munosabatda boʻlgan maktabda:

Oʻqituvchi nazoratga emas, balki taraqqiyotga koʻmaklashadi, oʻquv jarayonini jonlantiradi.

Darslik – bilim olish manbalaridan biri hisoblanadi.

Oʻquvchilarning oʻrganish va ijtimoiy yoʻnalishga oid imkoniyatlarini takomillashtiradi..

Bilim olishning interfaol usullari qoʻllaniladi.

Bilim olishni turli usullari va yondashuvlari inobatga olinadi.

Norasmiy, insonparvar, qaygʻuruvchi taʼlim muhiti (bilim olish, gʻayratli ish va qiziqarli vaqt oʻtkazish sifatida).

Oʻquvchilarga, ularning ichki imkoniyatlariga nisbatan ijobiy qarash.

9 – SINIF JAHON TARIXI

Mavzu: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida YAPONIYA.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni Yaponiya davlatidagi boshqaruv, siyosiy tuzumi, taraqqiyotidagi rivojlanish shakllari bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy ahamiyati: O'quvchilarni Yaponiyadagi urf – odatlar, madaniyati va tarixi asosida kichik guruhlarda ishlash orqali o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalash va mustaqil ishlashga o'rgatish, insonparvarlik printsiplarga asoslangan g'oyalarni uyg'otish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tafakkur, xotira, idrok, erkin fikr, mustaqil qaror qabul qilish, qolganlar fikriga qo'shilish mashqlari orqali qiziqishni rivojlantirish.

Dars jihozi: Darslik, Mavzuga oid xarita, Vatman, marker, skotch, jadvallar, ko'rgazmali qurol, kompyuter, multimediya, doska va bo'r

Dars usuli: Aralash (O'quvchilarga tezkor savol – javob berish, kichik guruhlarda ishlash, savol - javob).

Tarqatma materiallar: Asosiy tushunchalar yozilgan kartochkalar:

Syogun, Samuray, Perlar, Annektsiya, Tovon.

SYOGUN – Yaponiyadagi harbiy hukmdor, siyosiy hokimiyat rahbari.

SAMURAY – HARBIY XIZMATCHI, DVORYAN

PERLAR – Yaponiyada ikki palatadan iborat bo'lgan parlamentning YUQORI palatasi

ANNEKSIYA – lotincha birlashtirish ma'nosida bo'lib, bir davlat hududini zo'ravonlik yo'li bilan butunlay yoki qisman o'z davlatiga qo'shib olish.

TOVON – Urushda mag'lubiyatga uchragan davlatdan g'olib chiqqan davlat foydasiga majburan undiriladigan pul to'lovi

Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

Darsning bosqichlari jadvali:

№	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Siyosiy jarayon	3 daqiqa
3	Bayram tabrigi	2 daqiqa
3	O'quvchilarni guruhlariga bo'lish (yoki bir kun oldin vaqtdan yutish maqsadida guruhlariga bo'lib olish.)	2 daqiqa
4	O'tilgan mavzuni so'rash uchun tezkor savollar	10 daqiqa
5	Yangi mavzuni bayon etish.	10 daqiqa
6	Guruhlarda topshiriq bo'yicha ishlash	10 daqiqa
7	Dars yakuni va o'quvchilarni baholash, uyga vazifa berish	5 daqiqa

Dars rejasi:

1. Mamlakatda bozor iqtisodining rivojlanishi.
2. 1889 – yil konstitutsiyasi.
3. Yaponiyaning tashqi siyosati.
4. Yaponiyadagi ijtimoiy harakat.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib bo'lgandan so'ng, o'qituvchi -“bugungi darsimizni har doimgiday dunyoda bo'layotgan siyosiy xalqaro ahvol haqidagi suhbat bilan boshlaymiz.”- deb , oldindan tayyorlanib kelgan bir o'quvchiga so'z beradi. Shundan so'ng o'qituvchi “o'quvchilar ertaga qanday kun” - deya o'quvchilarga savol beradi. Shunda o'quvchilardan biri – “ertaga – 8 –dekabr’ – mamlakatimizning bosh qomusi – Konstitutsiya qabul qilingan kun”,-deb javob beradi. Bir o'quvchi mamlakat Prezidentining shu haqdagi farmonini o'qib eshittiradi. O'qituvchi o'quvchilarni ushbu ulug' ayyom bilan qutlaydi va o'quvchilarni qo'lida ushlab turgan karobkadan o'zlari xoxlagan narsani olishlarini so'raydi. Olingan jismlar bo'yicha bir guruh bo'lishlarini so'rab, o'z guruhlariga nom berishlari, sardor tayinlashlarini va guruh a'zolarini tanishtirishni iltimos qiladi.

- 1 – guruh – “ SAMURAYLAR ”shiori –Tarixsiz –kelajak yo`q.
 - 2 – guruh – “Mirzo Ulug`bek ” shiori – Kelajak, tarixdan boshlanadi
 - 3 - guruh – “Amir Temur ” shiori – Kuch adolatda.
 - 4 – guruh – “al – Xorazmiy ” shiori – Kuch birlikda.
 - 5 – guruh – “A. Navoiy ” shiori – Aqlga bilim- qalbga ma'naviyat
- Endi hurmatli o'quvchilar sinfimizning shiori shunday bo'lsin:

“Hamma – bir kishi uchun, bir kishi – hamma uchun” degan qoidaga amal qilishga harakat qiling. O'tilgan mavzularni esga olish va bilimingizni sinash uchun hozir har bir guruhdan 1 tadan o'quvchiga tezkor savollarga javob olish orqali baholashni boshlaymiz. Agar o'quvchi berilgan har uchchala savolga to'g'ri javob bersa – 5 ball, agar 2 ta savolga javob bersa, 4 ball, 1 ta savolga javob bersa – 3 ball, umuman javob berolmasa – 2 ball oladi.

1- guruh a'zosi (o'quvchining ism, familiyasi aytiladi yoki guruhni o'ziga) ga **birinchi savol:**

XIX asrning 80 – 90 yillarida Rossiyada milliy – ijtimoiy harakat yuz bergan paytda, O'rta Osiyoda qanday harakat vujudga kelgan edi?

Javob - JADIDCHILIK

2- guruhga birinchi savol:

XX asrning boshlarida Rossiya qaysi sohada dunyoda birinchi o`ringa chiqib oldi?

Javob - NEFT qazib chiqarishda

3- guruhga birinchi savol:

Rus – yapon urushida Rossiyaning mag`lubiyati nima bilan izohlanadi?

Javob: Chorizmning harbiy- iqtisodiy zaifligi va urushga mutlaqo tayyorgarlik ko`rmaganligi bilan.

4 – guruhga birinchi savol:

Sibir temir yo`li qaysi yillar davomida qurildi?

Javob: 1891 – 1908

5- guruhga birinchi savol:

1905–1907 yillardagi Rossiyadagi inqilobiy harakatning asosiy vazifasi nimadan iborat edi?

Javob: mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy tizimdagi monarxistik qoldiqlarni hamda Krepostnoylikni tugatishdan iborat edi.

1- guruhga ikkinchi savol:

Rossiyada o`tkazilgan Stolipin agrar reformasining maqsadi nimadan iborat edi?

Javob: Markazda er tanqisligini engillashtirish, milliy chekka o`lkalarga ko`chib borgan ruslarning “ ruslashtirish ” siyosatini yurg`izish va Rus bo`lmagan xalqlarni bo`ysundirib turishda ommaviy baza sifatida foydalanish edi.

2 – guruhga ikkinchi savol:

XIX asr oxirida Avstriya – Vengriya qanday mamlakat hisoblanar edi?

Javob: eng qoloq mamlakatlardan biri.

3 – guruhga ikkinchi savol:

“ Uchlar ittifoqi ” qaysi davlatlar o`rtasida tuzildi?

Javob : Avstriya – Vengriya, Germaniya va Italiya

4 – guruhga ikkinchi savol:

Rus – Turk urushi Bolqon davlatlari uchun qanday urush bo`ldi...

Javob: Ozodlik urushi bo`ldi

5 – guruhga ikkinchi savol:

Italiya sanoatida eng ustun mavqeni egallagan monopolistik birlashmaning nomini aniqlang?

Javob : “ Fiat ”

1 – guruhga uchinchi savol:

Frantsiya – Prussiya urushi qachon bo`lib o`tgan?

Javob : 1870 - 1871 yillarda

2 – guruhga uchinchi savol:

Parij kommunasi nechanchi yilda bo`lib o`tgan?

Javob: 1871 yilda

3 – guruhga uchinchi savol:

Yaponiya davlatining boshqaruv shakli qanday?

Javob : Monarxiya

4 – guruhga uchinchi savol:

Yaponiya davlatini kim boshqaradi?

Javob : Imperator Akixito

5 – guruhga uchinchi savol:

Yaponiya davlatining poytaxti qayer?

Javob : Tokio

Tezkor savollar o`rniga test qilib tuzish ham mumkin.


Test javoblari:

1).D 2).V 3).V 4).A 5).E 6).E 7). A 8). A 9). D 10).E 11).A 12).V 13) S 14). D 15). E

Ekspert guruhidan g`olib o`quvchi aniqlanadi va baholanadi.

Yangi dars bayoni:

Yangi mavzu yuzasidan o`qituvchining ma`ruzasi tinglanadi. O`qituvchi 9 – 10 daqiqa mobaynida yangi mavzu haqida eng muhim va yangi ma`lumotlarni beradi. Yaponiya davlati Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi Xonsyu, Kyusyu, Xokkaydo, Sikoku va qator mayda jami bo`lib 3900 ta orollar bo`lgan joyda joylashgan davlat.




Poytaxti – Tokio. **Er maydoni** – 377 ming 535 kvadrat kilometr. **Aholisi**- 127 mln. 200 ming kishidan oshiqroq. (2003 y. ma'lumot)

Davlat tili – YApon, **Dini** – sintoizm, buddaviylik va xristianlik. **Pul birligi** – Iena.

Davlat tuzilishi – konstitutsion monarxiya. Mamlakat tarkibiga 47 ta prefektura kiradi. Afsonalarga ko'ra, Yapon davlatiga m.a. 660 yilda **imperator Dzimmu** asos solgan.




Milliy bayrami – 23 dekabr- **Imperator tug'ilgan kun**. **Davlat boshligi** – imperator (**imperator Akixito mamlakatni 1989 yil 7 yanvardan** beri boshqarib kelmoqda. Amalda ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyat, Maslahatchilar palatasi (**Yuqori**) va Vakillar palatasi (**Quyi**)dan iborat parlament tomonidan amalga oshiriladi. **Yirik siyosiy partiyalari** – Yaponiya demokratik partiyasi, Liberal – demokratik partiyasi, Yaponiya kommunistik partiyasi, “ Sakigake ” partiyalari mavjud.



Iqtisodiy qudrati jihatidan jahonda AQSHdan keyin **ikkinchi o'rinda turadi**. Yaponiya kema, avtomobil', traktor, metallga ishlov beruvchi uskunalar, turmush elektronikasi robotlarni ishlab chiqarish bo'yicha **dunyoda birinchi o'rinni egallaydi**.

M.A.660 yilda imperator Dzimmu dastlabki davlatga asos soladi. Bir necha asrlar mobaynida Yaponiya Xitoy va Koreya madaniyati ta'siri ostida qoladi. Aynan shu davlatlardan VI asrda Yaponiyaga buddaviylik dini kirib keladi.



Budda haykali.



Yaponiyadagi Budda haykali


Sukatin davlatida yaratilgan

522 yilda Yamato sulolasi hokimiyatga keladi va Nara shahrini poytaxt deb e'lon qilib, Xitoy ma'muriy boshqaruv tizimini joriy etishadi. 794 yildan Xeyan davri boshlanib, **poytaxt Kiotoga** ko'chiriladi. IX asrda **yapon yozuvi** shakllanadi. XI asrdan rasman hukmdor bo'lib, amalda hokimiyat Syogun qo'lga o'tadi.



Minamoto –Yoritomo birinchi syogun

Mamlakat poytaxti Kamakuraga ko'chiriladi. **Samuraylar** mamlakatda **Dzen – buddizmning** tarqalishiga o'z hissalarini qo'shadilar.



Samuray surati

1274 va 1281 yillarda yaponlar mo'g'ullar hujumini qaytarishadi. O'zaro urushlardan keyin **1615 yilda Tokugava syogunati** boshlanadi. XVII asrda Yaponiyada evropaliklar – avval portugallar, keyinroq gollandlar paydo bo'ladi. SHunga qaramay , Yaponiya XIX asr o'rtalarigacha chet elliklar uchun yopiq bo'lgan. **1867 yilda** Tokugava sulolasining so'ngi syoguni **Esinobu hokimiyatni imperator Mukixotoga** topshiradi. **Poytaxt edu (Tokio)ga** ko'chiriladi. Yaponiya kuchli davlatga aylangach, **1894 yilda** Tayvanni, **1905 yilda** Rossiyaning TSusima jangida mag'lub etib, Port – Artur va Janubiy Saxalinni egallab oladi. **1910 yilda** Koreyani, ikkala jahon urushi oralig'ida Tinch okeanidagi qator orollarni bosib oladi. 1931 yili Manchjuriyaga bostirib kiradi. 1937 yili Xitoyning qolgan hududlariga bosqinchilik boshlanadi. Ikkinchi jahon urushiga **Yaponiya 1941 yilning 7 dekabrda A Q Shning Pyorl – Xarbor harbiy bazasiga hujum qilish bilan kiradi**. Urush davrida Yaponiya Angliya va Frantsiyaning Janubiy - Sharqiy Osiyodagi mustamlakalarini bosib oladi. Ittifoqchi qo'shnlarning hujumi, Xirosima va Nagasakiga AQSH tomonidan atom bombalarining



tashlanishi natijasida Yaponiya **1945 yilning 2 sentyabrida taslim** bo'lganligini e'lon qiladi. O'z mustamlakalarini yo'qotganligi va urushdan og'ir ahvolda chiqqanligiga qaramay, siyosiy hayotning demokratlashtirilishi va jadal texnologik taraqqiyot oqibatida YAponiya iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan eng boy davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Yaponiyaning 40 ga yaqin qo'shma korxonalari hamkorlik qilmoqda. Shu jumladan Namangan shahridagi 20 – umumta'lim maktabi Yaponiya ma'muriyati tomonidan o'tkazilgan loyihada qatnashib bir necha grantlarini yutib olgan. Yaponiya Iqtisodiy va madaniy sohada bizning mamlakatimiz bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Kompyuter orqali Yaponiya davlatining hozirgi davri haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Ko'rgazmali qurollar ko'rsatiladi.



**Tokio shahridagi boshqaruv
Idoralari**



Osaka shahridagi kurant



**Tokiodagi kibernetika
laboratoriyasi**



**Orollarni tutushtirgan tunnel
dan tez yurar poezdlar o'tadi.**

O'quvchilardan tezkor savol - javoblarni olib bo'lib, har bir guruhga Yangi mavzu bo'yicha dars rejasiga asosan topshiriq beriladi.

Har bir guruh uchun bittadan topshiriq yozilgan vatman qog'oz, marker beriladi va 7 minut ichida topshiriqni bajarish lozimligi va bir nafar o'quvchi 3 minutgacha taqdim etishi tushuntiriladi.

1 - guruh. Darslik kitobdan foydalangan holda **“Yaponiyaning siyosiy tuzumi”** haqida ma'lumot to'plang va guruhdan bir kishini taqdim uchun ajrating.

**XIX asrning oxiri – XX asr asrning boshlarida
Yaponiya siyosiy tuzumi:**

Syogunlar va imperatorning qo'sh hokimligi	1867 – 1868 yillar
Yaponiyada bozor munosabatlariga yo'l ochilishi	G'arb modeli asosida qayta qurilishi
Imperator Mutsixito tomonidan ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to'sqinlik qilgan qonun va tartiblarni bekor qilishi.	Mamlakatni modernizatsiyalash . Yagona pul birligi joriy etilishi.
Feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand va savdogar tabaqalarning teng huquqli deb e'lon qilinishi.	Yalpi harbiy xizmat haqida qonunning qabul qilinishi. Yaponiyada harbiy – feodal imperatorlik davlatining yuzaga kelishi.

2 - guruh. Darslik kitobdan foydalangan holda **“Meydzi islohotlari”** haqida nima bilasiz, ma'lumot bering va guruhdan bir kishini taqdim uchun ajrating.

Yaponiyadagi “Meydzi islohotlari” 1868 – 1878 yillar

Hukumat boshlig'i ARISUGAVA tashkilotchiligida Iqtisodiy sohada tubdan yangilanish, Evropa bilan iqtisodiy sohalarda yaqinlashish davri	
Er erkin olindi, sotishga ruxsat berildi. Hosildan hissa - natural soliq pul solig'i bilan almashtirildi.	Dehqonlar istagan ekinlarini ekishlariga ruxsat berildi. Yangi pul birligi ya'ni Iena joriy etilishi.
Erning maydalanib ketishiga qarshi qonun qabul qilindi.	

3 - guruh. Darslik kitobdan foydalangan holda **“Yaponiyada ijtimoiy islohotlar”** nimalardan iborat bo'ldi? Guruhdan bir kishini taqdim uchun ajrating.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Yaponiya ijtimoiy islohotlari.

1871 – yil huquqsiz quyi tabaqalar haqidagi qonun bekor qilindi.	Barcha tabaqa vakillari kasb tanlashga teng huquqli bo'ldilar.	Samuraylarning haqiqiy harbiy xizmatda bo'lmaganlari uchun qilich taqib yurishi bekor qilindi.
15 – 18 soat o'rniga 10 – 8 soat ish vaqtini joriy etilishi	Yaponiya ishchilar sinfi kasaba uyushmalariga birlasha boshlashishi.	Jamiyatdagi ilg'or qatlamning parlament tashkil etish uchun kurashi.

4 – guruh. Darslik kitobdan foydalangan holda **“Yaponiyada iqtisodiy taraqqiyot”** haqida nimalarni bilasiz, ma'lumot bering va taqdim uchun 1 kishi ajrating.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Yaponiyada iqtisodiy taraqqiyot.

To'qimachilik sanoati (sanoat tarmoqlarining - 45 %)	Yangi sanoat korxonalari (1300 ta)
Bankirlar sanoat korxonalarini sotib oldilar: Mitsui 2.Mitsubisi Sumitomo 4.Yasuda Furukava 6.Kawasaki Tanaka 8.Asano	Savdo, transport, sanoat va kapital jamg'arish baravar davom etdi.
Sanoat korxonalarining xususiy qilib sotilishi	Bank kapitali bilan sanoat kapitalining qo'shilib borishi. Monopoliyaning vujudga kelishi
Yaponiya hukumatining og'ir industriyani rivojlantirishga alohida e'tibor berishi.	1900-1913 – yillarda sanoat ishlab chiqarishining 181 foizga o'sishi.

5 – guruh. Darslik kitobdan foydalangan holda **“Yaponiyada davlat boshqaruvi”** haqida ma'lumot bering va bir kishini taqdim uchun ajrating.

**XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida
Yaponiya davlat boshqaruvi.**

1889 – yili Konstitutsiya qabul qilinishi	
Davlat tepasida IMPERATOR turishi	
Yashirin kengash	Vazirlar kengashi
PARLAMENT	
Yuqori palata (PERLAR)	Quyi palata (Vakillar palatasi)
7 – yillik	4 – yillik
Muddat bilan saylanadigan bo`lishi.	
Saylov huquqining mol – mulk senzi bilan cheklanishi.	
Saylov yoshining 25 yosh qilib belgilanishi.	

**XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida
Yaponiyaning tashqi siyosati.**

Aholining kambag`alligi	Sanoat mahsulotlarining sotib olinishini qiyinlashtirdi
Yaponiyaning bosqinchilik maqsadlari	Koreya, Xitoy, Tinch okean havzasiga qaratilishi
Qurollanish poygasining boshlanishi	1894 – 1895 yillarda Xitoy – Yaponiya urushi va Pxen`yan yonida Xitoyning mag`lubiyatga uchrashi
1895 yilda Simonoseki sulhi	Lyaodun, Tayvan, Penxu, Peskador orollarining Yaponiyaga berilishi
1904 – 1905 yilda Yaponiya – Rossiya urushi.	Rossiyaning AQSH, Angliya, Frantsiya tomonidan yolg`izlatib qo`yilishi va urushda Yaponiyadan engilishi.

Xulosa:

*Ishlab chiqarishga o'zgarishlar kiritildi.
Ozchilik qo'lida ulkan hokimiyat to'planishiga, monopoliyalar
davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilashlari boshlandi.
Yaponiyaning mustamlakachilikdan iborat tashqi siyosatlari
– imperializmni keltirib chiqardi.*

Darsni mustahkamlash va yakunlash:

O'quvchilardan so'rash uchun savollar:

Yaponiya iqtisodining rivojlanishi boshqa davlatlar iqtisodining rivojlanishidan nimasi bilan farq qiladi?

Hozirgi kunda rus – yapon munosabatlari qanday ?

O'zbekiston – Yaponiya o'rtasidagi iqtisodiy – siyosiy munosabatlar haqida nima deya olasiz?

O'zbekiston xalq ta'limi rivojlanishida Yaponiya bilan olib borilayotgan hamkorlik haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu dars jarayonida nimalarni o'rgandingiz, qanday o'rgandingiz?

Uyga vazifa: Darslikning yigirma oltinchi paragrafini o'qib, o'rganib kelish.



Yapon askarlarining soldat va ofitserlari. XIII asr



YAPON MASXARA MASKALARI




YAPON MUXTOR ELCHISI XITOYGA KETYAPTI



YAPON O'RTA ASRLAR QAMOQXONASI



YAPONLARNING AN'ANAVIY MAKONI



Samuraylarning harbiy - yarog' aslahalari



**Rahmdillik ilohasi Qanon.
Barcha jonlilarni xalos qilgan mingta qo'li.**



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. Toshkent, 2006 yil**
- 2. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. Toshkent, 2002 yil**
- 3. M.Lafasov, U.Jo'raev, E.Xoliqov, D.Qodirovalar.
Tarixi 9 – sinf darsligi. Toshkent, 2010 yil.**
- 4. “Rus –Yapon urushi” xarita**
- 5. Dunyoning siyosiy xaritasi**







